

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– aprel holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **846 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarni ning ulushi **1,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **832 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-aprel oyida viloyatimizda 1202 korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 249 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tutgatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 72,1 % ga oshgan hamda ularning soni 370 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxona va tashkilotlar soni 865 ta (5,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16490 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Buxoro shahrida (32,6 %), G'ijduvon (10,6%), Romitan (7,6 %) va Buxoro tumani (6,8 %) tumanlaida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 may holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	Birlik	jamiga nisbatan %	Birlik	jamiga nisbatan %
Buxoro viloyati bo'yicha	17390	100,0	16490	100,0
<i>tumanlar:</i>				
Olot	597	3,4	542	3,3
Buxoro	1287	7,4	1126	6,8
Vobkent	854	4,9	833	5,0
G'ijduvon	1861	10,7	1741	10,6
Kogon	901	5,2	238	5,1
Qorako'l	891	5,1	835	5,1
Qorovulbozor	310	1,8	300	1,8
Peshku	1068	6,1	1043	6,3
Romitan	1286	7,4	1253	7,6
Jondor	1158	6,7	1083	6,6
Shofirkon	1058	6,1	953	5,8
<i>shaharlar</i>				
Buxoro sh	5533	31,8	5382	32,6
Kogon sh	586	3,4	561	3,4


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,8 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 5,2 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,3 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 21,6 % savdoda, 14,3 % sanoatda, 10,0 % qurulishda, 9,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,6 % tashish va saqlash, 1,2 % axborot va aloqa, 2,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-aprel holatiga 1202 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 26,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (366 ta), Romitan (139 ta), G'ijduvon (93 ta) va Peshku tumanlarida (82 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (26 ta), Olot (39 ta) hamda Vobkent (49 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi boshqa turlarda (310 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (210 ta), sanoat va savdoda (183 ta), tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (16 ta), tashish va saqlashda (34 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (35 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-aprel holatiga.	2018 yil yanvar-aprel holatiga.
Jami:	953	1202
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	227	210
Sanoat	222	183
Qurilish	107	143
Savdo	147	183
Tashish va saqlash	45	34
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	71	88
Axborot va aloqa	16	16
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25	35
Boshqa turlari	93	310

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi savdoda (-1,2 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,5 f.p.), tashish va saqlashda va axborot va aloqada (-0,1.), kamayganligi, buning natijasida boshqa faoliyat turlarida (+0,8 f.p), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,6 f.p), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,7 f.p), qurilishda (+0,5 f.p), ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.05.2018 y.	01.05.2017 y.	farqi (+ -)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,7	4,2	-1,5
Savdo	21,6	22,8	-1,2
Axborot va aloqa	1,2	1,3	-0,1
Sanoat	14,3	14,0	+0,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9,8	9,1	0,7
Qurilish	10,0	9,5	0,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,2	5,6	0,6
Tashish va saqlash	6,6	6,7	-0,1
Boshqa turlari	27,6	26,8	0,8

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 aprel holatiga 13455 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3023 ta, oilaviy korxonalar – 746 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 9307 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 25 tani va boshqalar 354 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 100 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga yoki 23,5 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 67 tasi qo'shma korxonalar, 33 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar 57 ta (57,0 %), Vobkent tumani 8 ta (8,0 %) va Kogon tumanlari 7 ta (7,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Kogon shahri 2 ta (2,0 %), Qorovulbozor tumani 2 ta (2,0 %), G'ijduvon tumani 2 ta (2,0 %) va Shofirkon tumani 1 ta (1,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 59 ta (59,0 %), savdoda 17 ta (17,0 %), boshqa turlarida esa 9 ta (9,0 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'r-satishda 1 ta (1,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 3 ta (3,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 ta (7,0 %) va qurilishda 4 ta (4,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'r'inib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat tur-lariga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 9 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga ko'paygan yoki 3,0 baravarga oshgan.

Bunda, Eron Islom Respublikasi – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 1 ta, Rossiya Federativ Respublikasi—1ta, Koreya Respublikasi– 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan va boshqa davlat rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 2 ta, savdoda 3 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2 ta, qurilishda 1ta, yashash va ovqatlanishda 1ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 13328 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 7,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4581 tasi (34,4 %) Buxoro shahriga, 1416 tasi (10,6 %) G'ijduvon, 1031 tasi (7,7 %) Romitan, hamda 918 tasi (6,9 foizi) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13328 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3531 tasi (26,5 %) – savdoda, 2307 tasi (17,3 %) - sanoatda, 1633 tasi (12,2 %) - qurilishda, 1573 tasi (11,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1014 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1074 tasi (8,1 %) - tashish va saqlashda, 185 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 370 tasi (2,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1641 tasi (12,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rini turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel holatiga 1001 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,2 foizga ko'kdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (333 ta), Romitan (116 ta), G'ijduvon (72 ta) va Peshku tumanlarida (64 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (24 ta), Olot 29, Vobkent (36 ta) hamda Kogon shahar (47 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (210 ta), sanoatda (183 ta), savdoda (181 ta) va qurilishda (143 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (16 ta), sog'liqni saqlashda va ijtimoiy xizmatlarda (35 ta) hamda tashish va saqlashda (34 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da

■ Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

■ Sanoat

■ Qurilish

■ Savdo


■ Tashish va saqlash

■ Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

■ Axborot va aloqa

■ Sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


■ Boshqa tarmoqlar



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 785 tani tashkil etib, ulardan 746 tasi yoki 95,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **27,5 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,2 % yoki 203 tasi sanoat, 31,1 % yoki 232 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,6 % yoki 109 tasi savdo, 14,1 % yoki 105 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 9 tasi qurilish, 0,8 % yoki 6 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, 2,1 % yoki 16 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,8 % yoki 58 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: F.Xakimova
(0371) 230-83-20,21**



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**